

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#17 (16671)
2025-yil 30-aprel,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan



Foto: Muqimjon QODIROV, O'zA

Bag'dod tumanidagi "Bag'dod zamin asali" MChJ rahbari, tadbirkor Abduvohid Ubaydullayev tashabbusi bilan Olchin mahallasida 30 dan ortiq turdagi tabiiy, sof asal mahsulotlari, asalari parvarishlash uchun zarur uskuna va qo'llanmalar joy olgan yangi markaz ochildi.

Markaz Olchin va Chekxitoy mahallalarida asalarichilik bilan shug'ullanib, yaxshi daromad topayotgan aholi, ayniqsa, yosh asalarichi-tadbirkorlar uchun muhim qadam bo'ldi. Endilikda ular sohada o'zini sinab ko'rishi, malakali maslahat olishi va amaliy ko'makka ega bo'lishi mumkin.

Hisob-kitoblarga ko'ra, tumandagi ayrim asalarichilar asal mahsulotlari orqasidan 100 million so'mgacha, asalari oilasini sotish hisobiga esa 25 million so'mdan ortiq daromad topmoqda.



DEHQONCHILIK OTBOZORNING DRAYVERI



➔ 2-bet

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-sonli qarori o'n minglab yoshlarning bandligini ta'minlash, doimiy daromad manbayiga ega bo'lishida dasturulamali bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Buxoro shahridagi Otbozor mahallasida 36 nafar yoshga yer ajratilgan. Mahalladagi yoshlar yetakchisi Mustafo Ismatov Prezident qarori asosida yaratilgan imkoniyatdan unumli foydalanib, yoshlarga yangi daromad manbayi yaratishga intilmoqda.

OLCHINNING BOLCHILARI

YANGI DAROMAD VA YANGI DUNYOQARASH

MAHALLA YETILIGI
YOSHLARGA TAQDIM
ETAYOTGAN ENG
KATTA IMKONIYAT

➔ 2-bet



Mahalla jamiyatni birlashtiruvchi, yoshlar hayotini o'zgartirishda katta rol o'ynaydigan muhim institutdir. Mahallalarda yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilib, ularning o'qish, ishlash va hayotda o'z o'rnini topishlari uchun zarur yordamlar ko'rsatilmoqda.

Maqsuda Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga o'qishga kirganidan xursand bo'lsa-da, kontrakt to'lovi masalasida qiyinchiliklarga duch kelgan. Biroq mahalla yoshlar yetakchisining tavsiyasi bilan "Yoshlar daftari"ga kiritilib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

SUBSIDIYA MAQSADLI AJRATILADI

IMTIYOZDAN
NOTO'G'RI
FOYDALANISH UNI
QAYTARIB OLISHGA
SABAB BO'LADI

➔ 3-bet

So'nggi yillarda davlat tomonidan turli maqsadlarda va turli jabhalarda subsidiya mablag'lari ajratilmoqda va ularning huquqiy asosi yaratilayotir. Xususan, uy-joy sotib olish uchun fuqarolarga subsidiya ajratish, tadbirkorlarga chorvachilik, asalarichilik, parrandachilik, baliqchilik yo'nalishlarida hamda qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etganligi va shunga o'xshash boshqa yo'nalishlarda ham subsidiyalar ajratib kelinmoqda.

SUBSIDIYA (lot. subsidium – yordam, nafaqa, qo'llab-quvvatlash) – davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag'lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag'i yoki natura shaklidagi yordam. Mablag' ko'rinishidagi aniq manzilli subsidiya – *bevosita*, soliqlik yoki boshqa imtiyozlarni joriy etish – *bilvosita* subsidiya deb ataladi. Subsidiya davlat tomonidan qaytarib olinmaslik sharti bilan ajratiladi. Subsidiyalar iqtisodiyotni diversifikatsiyalash (tarkibdan o'zgartirish), eksport-importni muvozanatga solib turish, fan-texnika yangiliklarini o'zlashtirishni yo'lga qo'yish, milliy sanoatni o'stirish, ayrim hududlarni rivojlantirish, konversiya va boshqa maqsadlarda qaratiladi.

BIR BOLA BIR HAYOT:

YO'L HARAKATI
XAVFSIZLIGIDA
BEPARVOLIKKA
O'RIN YO'Q

➔ 3-bet

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati etib belgilangan.

So'nggi yillarda bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari (YTH) tobora ko'payib bormoqda. YuNISEF ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida har kuni 3 000 ga yaqin bola yo'l transport hodisasi oqibatida halok bo'ladi yoki tan jarohati oladi. Afsuski, bu raqamlar O'zbekiston bo'yicha ham tashvishli ko'rsatkichlarni namoyon qilmoqda.



QALB DIPLOMATIYASI

TINCHLIK
YO'LIDA
MADANIYATLAR
MULOQOTI

Qadimiy va betakror Samarqand shahrida "Diplomatiya of the Heart (Qalb diplomatiyasi): Madaniyatlararo muloqot va tinchlikni qurishda ta'limning roli" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Tadbir AQShning O'zbekistondagi elchixonasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi, Samarqand viloyati hokimligi, Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universiteti va Baskerville instituti hamkorligida tashkil etilib, dunyoning 13 mamlakatidan 50 dan ortiq yetakchi olim va mutaxassislarni birlashtirdi.

Konferensiyaning asosiy maqsadlari:

- madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish;
- o'zaro hurmat va empatiyani mustahkamlash;
- zamonaviy "Buyuk Ipak yo'li" g'oyasini tiklash;
- ta'lim orqali tinchlik va barqarorlikka hissa qo'shish.

Samarqand – ming yillik tarix va madaniyatning jonli guvohi sifatida YuNESKO Bosh konferensiyasiga mezbonlik qilish arafasida turibdi. Bu o'z-o'zidan shahrimizning global madaniy almashinuv va muloqotdagi yuksak o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qalb diplomatiyasi yurakdan chiqqan samimiy muloqot, kelajak avlod uchun tinch va adolati dunyo sari qo'yilgan muhim qadamlardan biridir.

GLOBAL ISISH

IQLIM
O'ZGARISHIDAGI
ENG KATTA
MUAMMO

➔ 4-bet

Harorat va ob-havo sharoitlarining asta-sekinlik bilan, ammo barqaror ravishda o'zgarishi iqlim o'zgarishining asosiy belgilari. XIX asrdan boshlab (sanoat inqilobi) oxirgi ikki yuz yillikda insoniyatning o'zi bu o'zgarishlarning asosiy sababchisiga aylangan. Ayniqsa, ko'mir, neft va gaz kabi yoqilg'ilarning katta miqyosda yoqilishi jarayonni kuchaytirib yubordi.

Fosil yoqilg'ilarning yoqilishi natijasida atmosfera tarkibiga chiqadigan issiqxona gazlari Yer atrofiga qoplama hosil qiladi. Bu qoplama Quyosh nurlarining issiqdini ushlab qoladi va sayyora haroratining oshishiga olib keladi. Oddiy qilib aytganda, Yer katta termosga o'xshab qoladi.



MUAMMOLARNI PIYODA O'RGANAMIZ



➔ 4-bet

Tasavvur qiling, darraxtlar gapira olsa, nimalar degan bo'lardi? Ehtimol, o'tingaga aylanishdan ko'ra havodan nafasi siqilsa ham, yashashni afzal ko'ramdimi? Yoki chiqindi idishlari tilga kirsa-yu, "men bu yerdaman" deb o'zini eslatib tursa, to'g'ri kelgan joyga chiqindi uloqtirishga bahona kamayarmidi, kim bilsin. Isrof bo'layotgan sum haqida gapirishga esa til ojiz. Hammasini joy-joyiga qo'yish, mas'uliyat bilan yashash uchun o'simliklar-u chiqindilar tilga kirishi shartmi o'zi? Yaponiya, Germaniyadagi chiqindilar gapiradimi yoki Belorusdagi daraxtlar tilga kirganini eshitganmisiz hech?

Bir oz bo'lsa-da, piyoda sayr qilib, atrofini kuzatish, tabiatga quloq tutish, daraxtlar, suv va havoning biz tushunmaydigan, lek his qiladigan ovozi eshitish payti keldi. Chunki ular ham biz bilan birga yashamoqda. Xuddi o't-o'lanlardek insonlar ham tabiatning bir qismi ekan, ularga yetkazilayotgan zarar insonlarga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Ekologiyaga befarqlik – o'z taqdiriga, ertangi kuniga befarqlik bilan teng. Hozir shunday insonlar fikrini o'zgartirishga, tengdoshlarida, kelajak avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam berishni maqsad qilgan yosh ekolog bilan suhbatlashamiz.

DEHQONCHILIK OTBOZORNING DRAYVERI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

DEHQONCHILIK ILMI O'RGATILYAPTI

Otbozor mahallasida yoshlarni dehqonchilikka jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish, ularni mehnat bozoriga tayyorlash masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan:

Yoshlar uchun qishloq xo'jaligida ish o'rinlarini yaratish. Yoshlar yetakchisi yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida ularga yer ajratish, yerdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bozorgir mahsulotlarni yetishtirish yo'nalishida maxsus loyiha-ni yo'lga qo'ydi.

		
"Yashil"	"Sariq"	"Qizil"
toifa:	toifa:	toifa:
2 113	934	33
nafar	nafar	nafar

Mahalla drayveri:
qishloq xo'jaligi.



– Yoshlar yetakchisi yordami bilan 30 sotix yer olib, dehqonchilik qilyapman, – deydi Nutfullo Orzuyev. – Bir yilda 3 marta hosil o'laymiz. Yer maydonining yarmida zamonaviy issiqxona tashkil qildim. Issiqxonada haroratni nazorat qilish, sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va boshqa agrotexnik tadbirlar orqali yil davomida barqaror hosil olish imkoniyatiga ega bo'ldik. Ekinlarimiz erta pishadi, hosildorligi yuqori bo'ladi va bozorda yaxshi narxda sotish imkoniyatiga ega bo'lyapmiz. Yerning qolgan yarmida fasllarga qarab turli ekinlarni yetishtiramiz. Bahor faslida pomidor ko'chatlarini ekamiz. Bu davrda tuproq unumdorligi yaxshi bo'lgani sababli pomidorimiz serhosil bo'ladi. Yoz mavsumi yakuniga yetgach, ekin almashinuvi asosida kuz-qish mavsumiga mo'ljallab kartoshka ekamiz. Qish oylarida esa yer bo'sh qolmasligi uchun ko'katlar yetishtiramiz. Oilamiz daromadi oshyapti, mahalla aholisini ham arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlayapmiz.

Dehqonchilikda yangi yondashuvlar. Dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida yangi texnologiyalarni olib kelish va yoshlarni bu texnologiyalarga o'rgatish choralari ko'rilyapti. Talabgorlar Yoshlar ishlari agentligining shahar bo'limi bilan kelishilgan holda "Agrobank" ATBning "Fermerlar maktabi", "Suvchi-

lar maktabi", agrar sohada kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalariga va hududlardagi kichik biznesga ko'maklashish markazlariga o'quv kurslariga yo'naltirildi.

Agrar ta'lim va malaka oshirish. Yoshlar yetakchisi yoshlarni dehqonchilikni ilmiy asoslarga tayangan holda olib borishga o'rgatish uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etib keladi. Treninglarda dehqonchilikni boshlash istagidagi yoshlar hududdagi ilg'or fermerlar, dehqonchilik sohasida yaxshi daromad topayotgan, sohada o'z o'rniga ega kishilardan maslahat, tavsiyalar olishadi. Talabgor yosh dehqonlar soha ilg'orlariga shogirdlikka tushib ekin ekish, parvarishlash, yerni boqish sirlarini o'rganmoqda.

– Hozir yerga karam ekkanmiz, – deydi Dilbar Po'latova. – Umumiy 30 sotix yerimizni uch teng qismga bo'lgan holda, yiliga uch marotaba hosil o'laymiz. Birinchi navbatda 10 sotix maydonga karam ekamiz. Karam yarim tayyor holatga kelgach, darhol ikkinchi 10 sotixga ham urug'lik ekamiz. Bu jarayon bosqichma-bosqich olib borilgani sababli uzluksiz hosil olish imkoniyatiga ega bo'lyapmiz. Uchinchi hosil ham xuddi shu ketma-ketlikda ekiladi. Bu usul orqali yerimiz biror kun ham bo'sh turmaydi. Bo'sh turgan kichik maydonlarga tez pishadigan mahsulotlarni ekib, daromadni oshirib boryapmiz. Kelgusida ekin turini kengaytirish, texnik uskunalar bilan ta'minlash hamda boshqa qayollar ham ushbu faoliyatga jalb etish niyatidamiz.

MAHALLA BALANSI:

Aholi soni:
15 933 nafar;
Yoshlar soni:
3 080 nafar;
Ayol-qizlar:
1 995 nafar.

Mustafo Ismatov migratsiyadagi yoshlarni ham Vatanga qaytarib, yer bilan ta'minlashga harakat qilmoqda. Xususan, Sardorbek G'aybullayev 5 yildan buyon xorijda ishlar edi. Yoshlar yetakchisi uning holatini o'rganish maqsadida suhbatlashganda unga Vatanga qaytishi, yoshlar uchun yer berilayotgani, dehqonchilik qilib yaxshigina daromad topish mumkinligi haqida aytib o'tadi. Sardorbek O'zbekistonga qaytdi. Unga 30 sotix ekin maydoni olib berildi. Dehqonchilik ko'nikmalariga ega bo'lishi uchun mahalladagi ilg'or dehqonga biriktirildi. Hozirgi paytda Sardorbek issiqxona tashkil qilgan. Pomidor yetishtirib, yiliga 3 marotaba hosil oladi. Daromadi 50-60 million so'm atrofida.



DEHQONCHILIK VA TADBIRKORLIK MAKTABI

– Yoshlar uchun faqat ish o'rinlari yaratish emas, ularning tadbirkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantirish muhim, – deydi Otbozor mahallasi yoshlar yetakchisi Mustafo Ismatov. – Ish o'rni bu – vaqtinchalik yechim. Biz yoshlarga baliq berishimiz emas, baliq tutishni o'rgatishimiz kerak. Ular faqat biror joyda ishlab, maosh olish bilan cheklanib qolmasin, o'zlarining ishini ochishga, iqtisodiy mustaqil bo'lishga intilsin. Tadbirkorlik faqat daromad topish emas, balki g'oya bilan yashash, jamiyatga foyda keltirish, boshqalar uchun ham ish o'rinlari yaratishdir.

Qishloq joylarda yashovchi yoshlar orasida katta salohiyat bor. Ular yer bilan ishlashni biladi, mehnatdan qo'rqmaydi, tabiatni tushunadi. Bu yoshlardan kelajakning yirik fermerlari, innovatsion agro-tadbirkorlari chiqadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Faqat ularga yo'l ko'rsatish, ishonch bildirish kerak.



Shuning uchun biz mahallada yoshlar uchun "Dehqonchilik va tadbirkorlik maktabi"ni yo'lga qo'yish ustida ishlayapmiz. Bu yerda yoshlar yerga egalik qilish, uni sug'orish, urug' tanlash, hosil yetishtirishni o'rganadi, hosilni qanday qadoqlash, sotish, bozorda o'z mahsulotini tanitish, marketing yuritish kabi bilimlarni ham oladi. Ularni moliyaviy savodxonlikka, raqamli texnologiyalarni ishlatishga o'rgatamiz.

Yoshlar bilishi kerak: agar ular o'z g'oyasiga ishonsa, unga harakat va bilimni qo'shsa, u holda faqat o'z hayotini emas, balki butun mahallasining, hatto tumanining iqtisodiy qiyofasini o'zgartirishi mumkin. Biz esa shunday yoshlar bilan ishlashga tayyormiz va ularning har bir tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz.

IJTIMOIIY FAOL QATLAM

Qahramonimizning fikricha, yoshlarni ish bilan ta'minlash bilan birga ularni ijtimoiy jihatdan faol bo'lishga, o'z mahallasida ijobiy o'zgarishlar qilishga rag'batlantirish kerak. Ular dehqonchilikdan tashqari jamiyatning boshqa sohalarida ham o'zlarini namoyon etishlari lozim. Bu tashabbus bo'yicha yoshlar yetakchisining dasuri quyidagicha.

Mahalla infratuzilmasini rivojlantirishda yoshlar ishtiroki. Yoshlarni mahalla rivojiga hissa qo'shishga rag'batlantirish va loyihalarini amalga oshirishda ko'maklashish zarur. Masalan, mahalla parklarini obodonlashtirish, ekotizimlarni yaxshilash kabi ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishlari mumkin.

Yoshlar uchun sport va madaniy tadbirlar. Yoshlarni faollik va sog'lom turmush tarziga jalb qilish uchun sport tadbirlari, madaniy-ijtimoiy faoliyatni tashkil etish ham muhim. Natijada otbozorliklar "Besh tashabbus olimpiadasi", "DXX kubogi", "Shijoat va g'ayrat" musobaqalarida faol ishtirok etishmoqda.

TADBIRKORLIK FAQAT DAROMAD TOPISH EMAS, BALKI G'OYA BILAN YASHASH, JAMIYATGA FOYDA KELTIRISH, BOSHQALAR UCHUN HAM ISH O'RINLARI YARATISHDIR.

Ma'naviy va axloqiy tarbiyani oshirish. Yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatga o'rgatish, jamiyatda hurmat, mas'uliyat va hamjihatlik kabi axloqiy qadriyatlarini, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamiyat farovonligining asosiy mezonlaridan. Shuning uchun yoshlar yetakchisi mahalla ko'ngillilar jamoasini shakllantirgan. Bu jamoa yordamida haftaning juma kunida nogiron, imkoniyati cheklangan va qariyalar holidan xabar olishni yo'lga qo'ygan. Shuningdek, mahallada kitobxonlik muhiti ham shakllanyapti. Maktab kutubxonasi homiylar yordamida kitoblarni boyitilib, mahallaning barcha qatlami foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Yoshlarni tadbirlarga muntazam jalb qilinishi natijasida 2024-yilda mahalla yoshlari o'rtasida jinoyat sodir etilmagan.

– O'tgan yil yakunida dehqonchilik bilan shug'ullanayotgan yoshlar faoliyatini tahlil qildik, – deydi qahramonimiz Mustafo. – Tahlillarga ko'ra, Otbozor mahallasida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida yoshlarning bandligi sezilarli darajada oshdi. Yoshlar uchun ajratilgan yer maydonlari ularning o'zini o'zi ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi. Ular qishloq xo'jaligida ishlashni o'rganadi, shuningdek, bu jarayonda o'zlarining tadbirkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantirmoqda. Bu dehqonchilik loyihalarini mahalladagi boshqa yoshlar uchun ham namuna bo'lib, ularni ishini davom ettirishga undamoqda. Mahallada yoshlarning bandligini ta'minlash, mehnat va bilimga qiziqishlarini uyg'otish orqali, o'zi uchun doimiy daromad manbaiga ega bo'lishlarga yordam berdik.

SHAXSIY NAMUNA

Mustafo Ismatov 2025-yil 1 choragi yakunlari bo'yicha respublikadagi "Top – 100" yetakchi safida e'tirof etildi. Joriy yil boshida Sport vazirligining "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. 2024-yilda "Eng fidoyi yoshlar yetakchisi" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritgan. O'zbekiston "Veteran" jangchi-faxriy va nogironlar birlashmasining "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi xizmatlari uchun" medali sohibi.

Yoshlarga namuna sifatida yetakchining o'zi ham dehqonchilik bilan faol shug'ullanmoqda. U har yili mavsumiy ekinlarni ekib, yerdan unumli foydalanadi. Bu orqali o'zining ro'zg'origa foyda keltirish bilan birga mahalladoshlarga ham mehnatga bo'lgan mehnri, halol daromad topishning yo'lini ko'rsatadi. U g'alla, sabzavot va poliz ekinlari kabi mahsulotlarni ekib, hosilni mahalliy bozorlarda sotish orqali qo'shimcha daromad olmoqda. Shu bilan birga, yoshlarni ham ushbu sohaga bilan qiziqitirish, amaliyotga jalb qilish orqali mehnatsevarlik va tadbirkorlik ruhida tarbiyalashga intilmoqda.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

YANGI DAROMAD VA YANGI DUNYOQARASH

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

MAHALLA YETTILIGI YOSHLARGA TAQDIM ETAYOTGAN ENG KATTA IMKONIYAT

– O'qishga kirganimdan xursand edim, lekin kontrakt pulini to'lash muammo edi, – deydi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Ulug'bek mahallasida yashovchi Maqsuda Muhammadiyeva. – Nima qilishni bilmay, mahallamiz yoshlar yetakchisi Doston G'aniyevga murojaat qildim. U meni "Yoshlar daftari"ga tavsiya qildi. Oradan ko'p o'tmay, kontrakt pulimning bir qismi davlat hisobidan to'lab berildi. Bu menga nafaqat moddiy yengillik, balki ruhiy ko'tarinkilik berdi. O'qish-



ga, o'rganishga ishtiyiqimni yanada oshirdi. Endi faqat oldinga intilishim kerak. O'zim orzu qilgan kasb egasi bo'lish uchun ko'proq harakat qilaman. Yoshlar ishlari agentligining bunday ko'magi bizga katta turtki bo'lyapti. Bizga ishonishayotgani, qo'llab-quvvatlashayotgani uchun minnatdormiz.



Nurmuhammad Yusupov yoshlar yetakchisining ko'magi bilan qo'shimcha daromad topib, mahallaning eng faol volontyorlaridan biriga aylandi. Har qanday hashar, obodonlashtirish va ko'ngilli ishlarda u doim "Labbay!" deb chiqib, o'z texnikasi bilan barchaga yordam bermoqda. Bu esa uning nafaqat o'z hayotini, balki atrof-dagilarning hayotini ham yaxshilik sari o'zgartirishga intilayotganidan dalolat beradi.

– Hayot har doim bir tekis bo'lavermaydi, – deydi Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani Xo'jaqishloq mahallasida istiqomat qiluvchi Nurmuhammad Yusupov. – Ba'zan inson o'zining imkoniyatlarini topa olmay, og'ir sinovlardan o'tadi. Uzoq vaqt mening hayotimda ham shunday og'ir vaziyat bo'ldi. Ish topish hayotimdagi eng katta muammoga aylandi. Bugun dehqonchilik orqasidan oyiga 5-6 million so'm topyapman. Ilgari ish topa olmayotgan bo'lsam, hozir o'zim ish beruvchi darajasiga chiqdim. O'z mehnatim, harakatim bilan oilamga mustahkam tayanch bo'layapman. Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar bizga nafaqat barqaror daromad, balki hayotga yangicha qarash ham berdi.

ILGARI ISH TOPA OLMAYOTGAN BO'LSAM, HOZIR O'ZIM ISH BERUVCHI DARAJASIGA CHIQDIM.

Qoraqalpog'istonlik Nilufar Jamalova ta'lim olishdagi yo'lini, qiyinchiliklar va ularga qarshi kurashishdagi tajribasini o'rtoqlashdi. U shartnoma pulini to'lashdagi qiyinchiliklar sabab o'qishni tashlab ketmoq edi. Biroq bu pallamahalladagi yoshlar yetakchisi uning muammolariga yechim berdi. Nilufarning hi-koyasi yoshlarni o'z orzulariga erishish yo'lida qarshi turgan qiyinchiliklarga qaramay, bilim olishning ahamiyatini anglashga undaydi. Bu kabi yordamlar yoshlarning o'qishga ishtiyogini yanada kuchaytiradi va kelajakda muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi.

– Yosh oilamiz, bir nafar farzandim bor, – deydi Qo'ng'iro't tumanini Azatliq mahallasida yashovchi Ni-

lufar Jamalova. – Qoraqalpog' davlat universiteti talabasi-man. Turmush o'rtog'imning ishlari yurishmay, kontrakt to'lovimni to'lashda muammolarga duch kelayotgan edim. Mahalla yoshlar yetakchisi Saxibjamal Bazarbayeva uyimizga xatlov o'tkazish uchun keldi. Muammoni unga aytdim. Oradan ko'p vaqt o'tmadi. Meni "Yoshlar daftari"ga tavsiya qilib, o'quv shartnoma pulimni to'lab berdi. Shu bilan oilaviy holatim yaxshilandi, o'qishimni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ldim. Hozir o'z malakamni oshirish bilan birga, qo'shimcha ish bilan ham shug'ullanib, oilamga yordam berishga harakat qilaman.





Muhammadali QAHHOROV,
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti talabasi

O'zbekistonda o'quvchilarga ta'lim bilan bir qatorda tarbiya ham berib kelinadi. Ammo yoshlar hozirgi kunda maktabdan tarbiya olmoqdami? Tarbiyani kim berishi lozim o'zi: maktab, ota-ona, kitob, jamiyatda sodir bo'layotgan tashqi ta'sirlar yoki muhit? Aslini olganda, bugungi qiziqqon, shosh-qaloq avlodga tarbiyani kim berishi emas, qanday berish masalasi dolzarb.

XXI asr. Olti-yetti yoshli bolaning qo'lida telefon. Aniqlanishicha, 12-16 yoshli bolalar telefondan kuniga 8 soatdan 12 soatgacha foydalanmoqda ekan. Bola bir sutkaning yarmini yoki uchdan birini shu qurilma bilan o'tkazadi. Bu hatto maktab darslari, ota-ona bilan muloqotdan-da ko'proq. "Pediatriya" jurnalida chop etilgan izlanish natijalariga ko'ra, videoo'yinlarga mukkasidan ketgan bolalarda bu odatga aylanib, ruhiy xastalikka yetaklashi mumkin. "O'zini videoo'yinlardan uza olmaydigan bolalarda depressiya va bezovtalanish kucayadi" deydi nufuzli Klivlend klinikasi doktori Maykl Manos.

Bolaga velosipedni mashinalar qatnov yo'lida haydama, shoshib tez haydama deb bot-bot uqtirsangiz ham, u o'z bilganida qoladi. Ota-ona farzandiga bu xatti-harakatlar mudhish holatlarga olib kelishi mumkin ekanligini aytib tushuntira olmasligi ham tabiiy hol. Lekin bola o'z ko'zlari bilan shunday mudhish holatning guvohi bo'lar ekan, bu ishning qanchalik xato ekanligini va bu holatga o'zi ham tushishi mumkinligini tasavvur qiladi. Avtohalokat haqida eshitishdan ko'ra, uning guvohi bo'lish ta'sirliroq, albatta. Buning uchun avtohalokat uyushtirish kerakmi endi?

Yoshlarni ularni o'ziga jalb etuvchi va zamoniy vositalar orqali tarbiya qilish lozim. Bu jihat hozirgi kunda sintetik san'at hisoblangan kino-da mujassamdir.

“

**BU PROPAGANDANI
TO'G'RI YO'LGA
YO'NALTIRISH
LOZIM.**

2008-yilda rejissyor Mirmaqsud Oxunov sur'atga olgan "Shabnam" filmi yodga olinsa. Filmning bosh qahramoni Shabnam (Gulchehra Eshonqulova) kinoda o'zbek qizlariga xos bo'lgan milliy bosh kiyimi – do'ppida gavdalanadi. Bu film tomoshabinlarga taqdim etilganidan so'ng butun Toshkent qizlarining boshida "Iroqi do'ppi" ommalashdi. Bu – kinoning ta'siri.

2016-yildan so'ng yoshlar orasida "Ko'k kit" nomli o'yin ommalashib ketdi. O'yin real hayotda olib boriladigan o'yin bo'lib, uning yakunida o'ynovchiga o'z joniga qasd qilish topshirig'i beriladi. O'yin ishtirokchisi topshiriqni ijtimoiy tarmoqdagi "O'lim guruhi"dagi noma'lum "kurator"dan olib turadi. Moskvadagi maktab o'quvchilaridan biri "Ko'k kit"dan onasini o'ldirish haqida topshiriq olgan. Moskvalik 36 yoshli ayol o'g'lining yozishmalarini o'qib qolgach, politsiyaga murojaat qilgan. Mana shunday holatlarning oldini olish maqsadida o'sha vaqtda O'zbekiston yoshlariga maktablarda rejissyor Orif Yo'l-doshevning 2005-yilda suratga olingan "O'yin" nomli filmi qo'yib berilgan edi va bu juda yaxshi natija ko'rsata oldi.

"Meni kechir, yigit. Unaqa qarama menga. Ishim shunaqa bo'lgani bilan, o'zim ko'ngilchan odamman. Sen esa birinchisi emassan. Oxirgisi ham. Dunyo-da qimor degan narsa bor ekan, hali nene yigitlar senga o'xshab "Rossiya"ga ketadi. Lekin xatni bekor yozding-da, endi seni hech kim qidirmaydi. Hech kim



sendan xavotir ham olmaydi. Ishi ham bo'lmaydi. Mening qo'limdan keladigani faqat bir yaxshilik: pichoqni bir tortaman-u... Qo'rqma, qinamayman".

Filmda shu kadrning o'zininga ko'rigan har qanday inson bunday o'yinlarga qiziqmasligi, agar oldin qiziqqan bo'lsa, qaytib bu haqda o'ylamasligi aniq. Film orqali yoshlarga qimor va shunga o'xshash illatlarning oxiri qanday yakun topishi mumkinligi ochiq-oydin ko'rsatib berilgan. Qing'ir yo'llarga kirib qolgan ko'plab yoshlar shu film ta'sirida to'g'ri yo'lga qaytdi. Bu kabi kinolar orqali yoshlarga milliy ruhiyatni singdirish hamda ularga yaxshi tarbiya berish mumkin. Hozirgi kunda ham nafaqat yoshlar, kattalar orasida ham ommalashayotgan onlayn qimor o'yinlarining oldini olish uchun bunday filmlar zarur.

Kino san'ati boshqa san'at turlariga nisbatan keng imkoniyatlarga ega. Kino paydo bo'lgach, unga nisbatan ko'pchilik "zamonaviy qurol" sifatida qaradi. Undan xalqlarning hamda jamiyatlarning mafkurasini, ongini va qarashlarini xoh ijobiy, xoh salbiy tarfaga o'zgartirish uchun foydalanishdi. Bugungi kunga kelib kinodan propaganda sifatida keng foydalaniladi. Faqat bu propagandani to'g'ri yo'lga yo'naltirish lozim. Kino orqali yoshlarga ijtimoiy, axloqiy tarbiya berish, to'g'ri yo'lni ko'rsatish eng kerakli masalalardan biri.

Mutaxassis minbari

Akmal
XALIKOV,
Yoshlar ishlari
agentligi Yuridik
bo'lim boshlig'i



ning ko'rsatkichi yuqoriligi sabablardan biri hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 73-moddasi 4-qismi "g" kichik bandida bir qator jinoyatlarini sodir etgan shaxslarga nisbatan jazodan shartli ravishda ozod qilishdan iborat bo'lgan yengillik qo'llanilmasligi belgilangan.

Ushbu moddada shaxsning transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishi voyaga yetmagan shaxs(lar)ning o'limiga sabab bo'lsa, ushbu shaxs ham jazodan shartli ravishda ozod qilinmasligini, shuningdek, jazosi yengilroq jazoga almashtirilmasligini belgilash maqsadga muvofiq.

Bu haydovchilarni doim boshqa transport vositasida bolalar bo'lishi mumkinligi haqidagi taxmin bilan harakatlanishga undaydi. Uylarning har doim belgilangan me'yorlarga rioya qilgan holda (tezlikni oshirmasdan, svetoforga, yo'l belgilariga amal qilib, xavfli manyovrlardan tiyilib va boshqalar) transport vositasini boshqarishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida yo'llarda umumiy harakatlanish xavfsizligi ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Bolalarimizning hayoti va salomatligini himoya qilish har birimizning burchimizdir. Bu borada qonunlarni takomillashtirish, javobgarlikni kuchaytirish, ijtimoiy ong va mas'uliyatni yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar va ta'lim muassasalari tomonidan bolalarga yo'l harakati qoidalariga rioya qilish zarurligini kichik yoshdan singdirib borish orqali kelajakda qonunga itoatkor avlodni tarbiyalashimiz mumkin.

SUBSIDIYA

MAQSADLI AJRATILADI

IMTIYOZDAN NOTO'G'RI FOYDALANISH
UNI QAYTARIB OLISHGA SABAB BO'LADI

A trof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishini kamaytirish, suv resurslaridan oqilona, maqsadli va tejamkor foydalanilishini ta'minlashga qaratilgan, qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etgan qishloq xo'jaligi subyektlariga ham subsidiyalar ajratilishining huquqiy mexanizmi joriy etildi va amaliyotda keng qo'llanib kelinmoqda.

Xususan, 2024-yilning 20-avgust holatiga 304 ming gektar yer maydonida suvni tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Shundan 71 ming gektarda tomchilatib, 33 ming gektarda yomg'irlatib, 28 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyalari joriy etildi.

Ekinlarni yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etgan fermer xo'jaliklariga subsidiya ajratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 455-sonli qarori bilan tasdiqlangan Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2025–2027-yillar uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarga Paxta xomashyosini yetishtiruvchilar tomchilatib va diskret sug'orish tizimini joriy etish xarajatlarning bir qismini qoplash uchun xarajatlari 8 652,7 milliard so'mni tashkil etishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrda "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4919-sonli qaroriga muvofiq 2021-yildan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarga suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash uchun subsidiyalarni taqdim etilishi belgilandi.

Shundan kelib chiqib, "Agrobank" ATBning joylardagi filiallari fermer xo'jaliklari uchun tomchilatib sug'orish texnologiyasi asbob-uskunalarini sotib olish va o'rnatish uchun kredit mablag'larini ajratib kelmoqda. Ajratilgan kredit mablag'larining bir qismini qoplash uchun, ya'ni suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilganligi uchun davlat byudjetidan belgilangan tartibda subsidiya mablag'larini ajra-



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

tilishi yo'lga qo'yilgan. Mazkur munosabatlar Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-fevraldagi "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 95-sonli qarori bilan tartibga solinadi.

Bu munosabatlarning huquqiy asoslari va tartibi to'liq shakllantirilgan bo'lsa-da, fermer xo'jaliklari belgilangan tartiblarga har doim ham amal qilib kelmoqda, deb aytib bo'lmaydi.

Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyasini joriy qilishda davlat byudjetidan subsidiya olgan talabgorlar suvni tejaydigan sug'orish tizimidan 5 yildan kam bo'lmagan muddatda maqsadli va samarali foydalanishi shartli belgilangan. Mazkur talablarning buzilishi foydalanish yillariga mutanosib ravishda subsidiya mablag'larini qaytarilishiga sabab bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-fevraldagi 95-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash va berilgan subsidiyani qaytarish tartibi to'g'risida" Nizomi talablaridan kelib chiqib, joylardagi nazorat tadbirlarida tomchilatib sug'orish texnologiyasidan to'liq foydalanmaslik holatlari aniqlangan. Mazkur Nizomning 38-bandida agar joriy qilingan suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalaridan yoki uning asosiy qismlaridan sug'orish mavsumida foydalanilmaslik holatlari aniqlansa, ajratilgan subsidiya quyidagicha tartibda qaytariladi:

ikkinchi yildan foydalanilmasa – subsidiyaning 80 foizi;
uchinchi yildan foydalanilmasa – subsidiyaning 60 foizi;
to'rtinchi yildan foydalanilmasa – subsidiyaning 40 foizi;
beshinchi yildan foydalanilmasa – subsidiyaning 20 foizi.

Shundan kelib chiqib, prokuratura organlari subsidiya mablag'larini qaytarish yuzasidan iqtisodiy sudlarga da'vo arizalari bilan murojaat qilmoqda. Birgina 2024-yilda davlat manfaatiga 300 000 000 so'mdan ortiq subsidiya mablag'larini qaytarish bo'yicha sudlarga da'vo arizalari kiritilgan va ishning sud muhokamasi jarayonida fermer xo'jaliklari uzluksiz ravishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan foydalanmagan holatlari to'liq o'z isbotini topgani uchun da'vo talablari to'liq qanoatlanirilgan.

2025-yilning o'tgan davrida ham xuddi shunday da'vo arizalari bo'yicha Quyichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudi 150 000 000 so'mga yaqin subsidiya mablag'i davlatga qaytarilishini ta'minladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari sug'orish texnologiyalari joriy etganligi uchun taqdim etilgan subsidiya mablag'laridan samarali foydalanilishi boshqa imtiyozlarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, Soliq kodeksining 428-moddasiga binoan suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg'irlatib, diskret va boshqa) sug'orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar – suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan e'tiboran besh yil muddatga mazkur yerlarga nisbatan soliq hisoblanmaydi. Bu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organning xulosasi asosida beriladi. Agarda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yoki demontaj qilingan bo'lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi.

Ya'ni fermer xo'jaliklari o'z majburiyatlarini to'liq bajarmasa, pullar davlatga qaytariladi.

E'tiborli jihat, mazkur holatlarni nazorat qilish tegishli vakolatli davlat organlari bilan birgalikda jamoatchilik tomonidan ham amalga oshiriladi. Jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi ajratilgan mablag'lar maqsadli ishlatilishini ta'minlashning muhim vositalaridan sanaladi.

**Alibek HAITBOYEV,
Eldor QURBONOV,**

Quyichirchiq tumanlararo
iqtisodiy sudi sudyalari.



BIR BOLA – BIR HAYOT:

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi yig'ilishida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning 10 oyi davomida respublikada 7 636 ta YTH sodir bo'lib, 1 931 kishi halok bo'lgan. Shundan shunda 226 nafar yosh bolalar. 2023-yilda esa YTHlar soni 9 839 taga yetgan. Ularda 2 282 kishi, jumladan, 263 nafar bola hayotdan ko'z yumgan. Ochiq ma'lumotlar portali e'lon qilgan ma'lumotga ko'ra, 2024-yilda mamlakatimizda jami 9 364 ta YTH ro'y bergan. Yilning dastlabki 5 oyida 359 nafar o'quvchi YTHga uchragan, shundan 65 nafari o'lim bilan tugagan.

Mazkur holatlar davlat tomonidan qat'iyl choralar ko'rinishini taqozo etadi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq javobgarlik choralarini kuchaytirish, yangi turdagi qilmishlar uchun javobgarlikni belgilash kabi choralar avtotransport vositalari haydovchilarining yo'llarda yanada sergakligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu esa bolalar ishtirokidagi YTH sonining kamayishiga olib keladi.

Jinoyat kodeksining 266-moddasi 1-qismiga ko'ra, transport vositasini boshqaruvchi shaxs transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetishiga olib kelsa, alternativ jazolar bilan birga 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Bu qilmish odam o'lishiga sabab bo'lsa, yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan (266-moddada, 2-qism), odamlar o'limiga, halokatga, boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan (266-moddada 3-qism) jazolanadi.

Ushbu sanksiyalarni belgilashda jabrlanuvchilarning yoshi ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Fikrimizcha, aynan shu omil so'nggi yillarda yo'llarda sodir etilayotgan yo'l-transport hodisalari jabrlanuvchilari, shu jumladan, halok bo'lganlar ro'yxatida bolalar-

YETAKCHILAR TARIXIY SHAHARLARGA SAYOHAT QILDI



Samarqand shahar hokimligi tashabbusi bilan mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari va faol yoshlardan bir guruhi qadim va navqiron Xorazm hamda Buxoro viloyatlarining tarixiy qadamlariga uch kunlik sayohat qildi.

Samarqand shahar yoshlar ishlari bo'limi boshchiligidagi safar Urganch shahridan boshlanib, dastlab buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberddining mahobatli monumenti ziyorat qilindi. So'ng sayohatchilar Xiva shahrining diqqatga sazovor joylari – ko'p yillik tarixni o'zida aks ettiruvchi me'moriy obidalar va qadimiy yodgorliklarni yaqindan tomosha qilish imkoniga ega bo'ldi.

Keyingi manzil qadimiy Buxoro shahri bo'ldi. Sayohatchilar "Ark" qal'asi, "Labi Hovuz" ansambli, "Tim" savdo majmuasi kabi tarixiy obidalarni ziyorat qildi. Muzeylardagi eksponatlar bilan yaqindan tanishib, moziy sahifalariga nazar tashladi.

Samarqand shahar hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu tarixiy sayohat barcha ishtirokchilar tomonidan iliq kutib olindi. Sayohat tadbiri yoshlarda tarixiy mero-simizga qiziqish va hurmatni yanada oshirdi.



Shahobiddin LUQMON,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

GLOBAL ISISH

IQLIM O‘ZGARISHIDAGI ENG KATTA MUAMMO

Iqlim o‘zgarishiga eng kuchli ta’sir o‘tkazayotgan gazlar – karbon va metan gazlari. Bular avtomobillardan, ko‘mirda ishlaydigan isitish tizimlari yoki turli xo‘jalik faoliyatlari natijasida ajralib chiqadi. O‘rmonlarning kesilishi va yerlarning qishloq xo‘jaligi uchun tozalanishi ham karbon gazlari miqdorini oshiradi. Umuman olganda, energiya ishlab chiqarish, sanoat, transport, binolar, dehqonchilik va yer resurslaridan foydalanish insoniyat tomonidan hosil qilinayotgan issiqxona gazlarining asosiy manbalaridir.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-2020-yillar rekord darajada issiq bo‘lgan. So‘nggi 4 o‘n yillik 1850-yildan buyon o‘tgan barcha o‘n yilliklardan issiqroq kelgan (iqlim o‘zgarishi vaqt kesimida o‘n yilliklarda taq-qoslanadi). Global isishga sabab bo‘ladigan chiqindilar tashlash bo‘yicha 6 ta hudud – YI, AQSh, Hindiston, Braziliya, Xitoy va Rossiya 2023-yilda butun dunyo bo‘ylab umumiy chiqindilarning 50 foizdan yuqori ko‘rsatkich qayd etgan. Kam rivojlangan 45 ta davlatda bu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 3 foizni tashkil qilgan. “Har bir inson iqlim bo‘yicha chora ko‘rishi kerak, ammo muammoni ko‘proq keltirib chiqarayotgan odamlar va mamlakatlar birinchi navbatda harakat qilish uchun mas’uliyatdirlar” deyiladi BMT hisobotida.

Global isishga sabablardan biri quyoshdan keladigan energiyaning ortishi degan gaplar ham bor. Ammo NASA bergan ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, 1750-yildan buyon yerga keladigan quyosh energiyasi oshmagan, balki kamaygan yillar ham bo‘lgan. Ammo shu yillarda ham Yer yuzidagi harorat ko‘tarilishi davom etgan. “1970-yillarda tizimli ilmiy baholashlar boshlanganidan beri inson faoliyatining iqlim isishiga ta’siri nazariyadan aniq faktga aylandi” deyiladi BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi bayonotida.

MARKAZIY OSIYODAGI VAZIYAT

Global isishning Markaziy Osiyoga ta’sirini o‘rganish maqsadida “International Journal of Climatology” jurnalidagi ilmiy tadqiqotlardan biriga murojaat qildik. Tadqiqotda aytilishicha, Markaziy Osiyoda harorat ko‘tarilishi eng asosiy qurg‘oqchilik, oz-iq ovqat xavfsizligi, daryolar, suv resurslari bilan bog‘liq xavflarni kuchaytiradi. 1950-yildan 2019-yilgacha bo‘lgan kuzatuvlarda butun Markaziy Osiyo hududida isish tendensiyasi bo‘lgan, ayniqsa, Afg‘onistonning g‘arbiy va janubi-g‘arbiy qismi, Orol dengizi hududi hamda Qirg‘izistonda kuchliroq. So‘nggi 20 yil davomida MODa aslan issiq bo‘lgan oylardan ko‘ra sovuq bo‘lgan oylarning isishi ko‘proq kuzatilgan. Bu esa tog‘li hududlardagi suv zaxiralari va muzliklarga xavf tug‘diradi, sikl buziladi.

“2004-yildan beri (15 yil ketma-ket) iyun va avgust oylaridagi oylik harorat 1950–1979-yillardagi o‘rtacha qiymatdan past bo‘lmagan. Sentabrdagi isish esa muzliklarning erish davrini uzaytiradi va daryolardagi suv oqimini oshiradi. Agar MO davlatlari bu kelajakda ko‘payadigan daryo oqimlariga moslashmasa, bu holat ular uchun jiddiy muammo tug‘dirishi mumkin”, deyiladi tadqiqotda.

Ekologik xavflarni baholash bo‘yicha mutaxassis Hanifa Burxonovaning fikricha, oxirgi 20 yilda Markaziy Osiyoda isish bilan birga yog‘ingarchilik miqdori ham ortgan, ammo mavsumga va hududlarga noxos, noproporsional tarzda yuz beryapti bu jarayon. Shuningdek, mutaxassis sement changlari muzliklar erishiga eng ko‘p ta’sir qilayotgan omil bo‘lishi mumkinligini aytadi.

– Bilasizmi, karbonat angidrid masalasi deyarli hal qilinmagan bo‘lsayam, u hozir unchalik aktual emas. Ayni paytda iqlimga eng kuchli ta’sir o‘tkazayotgan antropogen faoliyat – qurilish. Iqlimni isitayotgan narsa esa – sement. Beton iqlimni faqat isitmaydi, yetarlicha sovitadiyam. Yerda beton qoplama va baland binolar ko‘payishi quruq iqlimli hududlarni Quyosh chiqib turgan paytda yanada qizitib, kechalari keskin sovishiga sabab bo‘layotgani isbotlangan.

Katta hajmda olib borilayotgan qurilish ishlari havo tarkibi buzilishiga sabab bo‘lyapti. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda. Bizdagi qurilishlarda ekologik sanitariya qoidalariga rioya qilmaslik holatlari ko‘p uchraydi. Sement zararlari oddiy tuproqdan keskin farq qiladi. Bu masalada hali tadqiqotlar yetarli emas, lekin sement changi abadiy muvaznliklarni boshqa faktorlardan ko‘ra tezroq yemirayotgan bo‘lishi mumkinligi haqida gipoteza bor. Men bu gipotezani haqiqatga yaqin deb o‘ylayman.

Oxirgi 20 yillikda Markaziy Osiyoda yog‘in miqdori yetarlicha ortgan, bu iqlim isishiga proporsional yuz bergan. Masalan, men bolaligimda Qo‘qonda haftalab yomg‘ir yog‘ishini tasavvur qila olmasdim. Hozir bu deyarli oddiy holatga aylandi. Qo‘qon va Nukus Markaziy Osiyodagi eng quruq iqlimli mintaqada hisoblanadi. 90-yillarda bu hududlarda yiliga 70-77 promille miqdorida yog‘ingarchilik qayd etilgan. Hozir menda aniq raqam yo‘q, lekin shaxsiy kuzatuvlarimga asoslanam, Qo‘qon atrofida yiliga 90-110 promille yog‘in yog‘yapti deya olaman. Qurg‘oqchil hududda yog‘in miqdori ortishi bir qarashda yaxshi o‘zgarishga o‘xshashi mumkin. Lekin bu yog‘inlar umuman keraksiz paytda yog‘ib, hosil yo‘qotilishiga sabab bo‘lyapti. Ba’zi yillarda esa yog‘ingarchilik miqdori keskin tushib ketyapti. Umuman, sikl buzilgan.

2000-yillargacha ozon qatlami yemirilishi va issiqxona gazlari miqdori (karbon va freon gazlari) ortib ketishi iqlim o‘zgarishlarini keltirib chiqarayotgan asosiy faktorlar edi. Asosiy “jinoiyatchi”lar transport, energetika va elektronika sanoati edi. Hozir ham karbon gazlari muammosi to‘liq hal qilinmagan. Lekin transport vositalari

ning iloji boricha ekologik xavfsiz bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Maishiy texnika (muzlatkich va konditsionerlarda freon ishlatilgan) ishlab chiqaruvchilari va energetiklar (podstantsiyalar sovitish tizimida freon qo‘llanilgan) freondan voz kechishda katta yutuqlarga erishyapti. XX asr oxirida ozon qatlamini deyarli tiklab olgandik. Lekin qurilish sanoati va shaharsozlikdagi yutuqlar bizga yoqimsiz syurprizlarni ham taqdim etdi. Osmono‘par binolar qurish poygasi va asfaltlashtirish vasvasasi ayni kunlardagi o‘ta jazirama yoz, qahraton qish va keraksiz yog‘ingarchiliklar sababchisi ekani isbotlangan.

Barcha mintaqalarda bo‘lgani kabi MODa ham bu masalalarga jiddiy qarala boshlangan. Hukumatlar tomonidan xalqaro maydonda turli chaqiriqlar bo‘lyapti, kompleks choralar ishlab chiqish masalalari ko‘tarilyapti.

NIMA QILISH KERAK?

BMT hisobotida bu muammolarga yechim borligi va davlatlar tezroq bir konsensusga kelgan holda keskin choralar ko‘rishni kerakligi aytiladi.

Iqlim o‘zgarishiga qarshi yechimlar atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga iqtisodiy foyda keltirish va hayot sifatini yaxshilash imkonini ham beradi. Bunga yo‘naltiruvchi xalqaro hujjatlar va tashabbuslar mavjud: Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha asosiy konvensiyasi (UNFCCC) va Parij kelishuvi shular jumlasidan. Harakatlar asosan uchta yirik yo‘nalishga bo‘linadi: **chiqindilarni kamaytirish, moslashuv va moliyaviy resurslarni safarbar etish.**

Energiya tizimlarini ko‘mir, neft va gaz kabi fosil yoqilg‘ilardan quyosh yoki shamol kabi qayta tiklanuvchi manbalarga o‘tkazish iqlim o‘zgarishini kuchaytirayotgan chiqindilarni keskin kamaytiradi. Biroq bunga tezda o‘tish lozim. Ko‘plab mamlakatlar 2050-yilgacha “nol chiqindi” maqsadiga erishmoqchi, lekin global isishni 1.5°C dan pastda ushlab qolish uchun 2030-yilgacha chiqindilar ikki baravarga qisqartirilishi zarur. Bunga erishish uchun ko‘mir, neft va gazdan foydalanish keskin kamaytirilishi kerak: fosil yoqilg‘i ishlab chiqarish va iste’moli 2030-yilgacha kamida 30 foizga kamaytirilishi shart, aks holda iqlim falokatlarini xavfi keskin oshadi.

Oqibatlariga moslashish esa odamlar, bizneslar, infratuzilma va tabiiy ekotizimlarni himoya qiladi. Bunda faqat hozirgi emas, balki kelajakdagi tadqiqotlar ham hisobga olinadi. Moslashuv har bir hududda zarur, biroq eng avvalo iqlim xatarlari oldida eng himoyasiz, resursi kam aholiga e’tibor qaratilishi lozim.

Iqlim o‘zgarishi doirasida yuz beryotgan har bir holat alohida katta mavzu. Global isish, oz-iq ovqat xavfsizligi, daryolar, muzliklar, qurg‘oqchilik, o‘rmonlar, flora va fauna masalalari — barchasi jamiyatlar tushunishi, kurashishi kerak bo‘lgan muammolar. Biz bu borada yoshlar ko‘proq faol bo‘lishini istaymiz, chunki aynan ular va ularning farzandlari iqlim o‘zgarishidan aziyat chekadi.

VIKIMEDIACHILAR ANJUMANI

Mirfayzbek ABDULLAYEV,
Qarshi shahridagi 4-maktab o‘quvchisi



Jahon internet tarmog‘ida-gi eng yirik ensiklopediya Vikipediya hisoblanadi. Deyarli har kuni internet qidiruv tizimlari orqali biron bir mavzuda izlanish olib borsak, birinchi navbatda Vikipediyaning sahifalariga havolalar chiqadi.

Vikipediyaning o‘zbekcha segmenti ham faoliyat yuritmoqda. Hozir o‘zbekcha Vikipediya-da 292 mingdan ortiq maqola mavjud bo‘lib, ular faol foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda yaratilmoqda va tahrir qilinmoqda.

Joriy yilning 19–20-aprel kunlari Toshkent shahri “Markaziy Osiyo vikimedia-chilar anjumani”ga mezbonlik qildi. Anjumanda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan bir qatorda yana 20 ga yaqin davlatdan 100 ga yaqin vikipediya-chi ishtirok etdi. Biz anjuman ishtirokchilari bilan Vikipediya-rni rivojlantirish, raqamli savdo-xonlikni oshirish, erkin bilimlar sohasida hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, Vikimedia jamg‘armasidan loyihalarni moliyalashtirish masalalarida fikr almashdik.

Men 2022-yilda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yo‘lga qo‘yilgan “Wiki-Stipendiya” loyihasi orqali Vikipediya-ga kirib kelganman. Hozirgacha 170 dan ortiq maqola yaratib, 8000 dan ortiq tahrirni amalga oshirganman. Shaxsan men uchun ushbu anjuman unutilmas voqea bo‘ldi. Xorijlik do‘stlar bilan fikr almashdik va kelgusi loyihalarimizni muhokama qildik.

MUAMMOLARNI PIYODA O‘RGANAMIZ



“BUGUNGI KUNGA KELIB “PIYODACHI” BLOGI MILLIONLAB KO‘RISHLAR SONI VA 57 MINGDAN KO‘P OBUNACHIGA EGA.

– Oldinlari men ham xuddi ba’zi ekologiyadan bexabar insonlardek bema’lul ko‘chaga chiqindi tashlaydigan, ekologik muammolar haqida umuman o‘ylamaydigan va bunga mutlaqo befarq inson edim, – deydi “Piyodachi” blogi asoschisi, yosh ekofaol Javohir Aliqulov. – Blogerlarni kuzatish jara-yonida tabiat qo‘nyida olingan ba’zi videolarga ko‘zim tushardi. So‘lim joylarga chiqindi tashlab ketadigan-lar uchun olingan kontentlarda faqat bu ish xatoligi uqitirilgan. Lekin o‘sha chiqindilarni tozalab, o‘rnak bo‘ladiganlarni deyarli ko‘rmaganman. Keyinchalik 2024-yil aprel oyida aynan ekologiya yo‘nalishida blog yuritishni boshladim. Bu ishim boshqalardan ajralib turishi uchun ularda yo‘q jihadni shakllantirishga harakat qildim. Kuzatuvchilar tomonidan iliq kutib olingani meni yanada ruhlantirdi.

Javohir Aliqulov 20 yoshda. O‘zJOKU talabasi. Rosa bir yil oldin Instagram sahifasiga “hobby” sifatida chiqindilar haqida video joylagan. Kuzatuvchilar buni ijobiy qabul qilgan va qahramonimiz faoliyatini davom ettira boshlagan. Bugungi kunga kelib “Piyodachi” blogi millionlab ko‘rishlar soni va 57 mingdan ko‘p obunachiga ega. Shu o‘rinda Javohirning mana shu 1 yil ichidagi yana bir yutu-g‘i Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e’lon qilingan “Top-20 ekofaol yosh-

lar” orasida e’tirof etilganidir. Ro‘yxatda Javohir alohida ajralib turishining sababi blogining nom-danlanishi noodatiyligida.

Chunki aksariyat yoshlar yo o‘zining ismi yo ekologik biror nomdan foydalanagan.

– “Piyodachi”ning alohida bir ma’nosi yo‘q. Shunchaki shaharni piyoda kezib, tabiat bilan hamnafas ekologik holatni kuzatishni yoqtiraman. Shu bilan birga, mana shu sayr davomida ayrim muammolarga yechim topishga harakat qilaman. At-rofddagi ekologik muammolarni kuzatishlar orqali aniqlab, o‘sha yerning o‘zida bunga yechim topish uchun piyoda yurish, sayr qilish kerak deb o‘ylayman. Uzoqdan turib bu kabi ishlarni amalga oshirishning imkoni yo‘q. Bundan tashqari, hozircha aniq bir jamoa tuzilmagani. Blog yuritishni boshlaganimdan so‘ng ayrimlar ko‘ngilli sifatida men bilan birga atrofni tozalab, ekologiyaga o‘z hissasini qo‘shmoqchiligini bildirishgan. Shundan so‘ng ko‘ngillilar bilan videolar uyushtirishni odat qilganmiz. Videoga olish va montaj ishlari ham o‘zim bajaraman.

Mustaqil bir ishni boshlash uchun mablag‘ talab qilinadi. Masalan, Yevropada yoki boshqa davlatlarda obunachilar o‘zlari sevib kuzatadigan blogi uchun va shu blog yanada sifatli, foydali kontent tayyorlashi uchun xo-

HAMKORLIK MEMORANDUMI



O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda xorijiy tillarni targ‘ib qilish bora-sida faoliyat yuritib kelayotgan “Ibrat farzandlari” jamoasi o‘rtasida o‘zaro anglashuv va hamkorlik memorandumi imzolandi. Memorandum yoshlar-niing ilm-fan sohasida erkin fikrllovchi, bilimli va tashabbuskor avlod bo‘lib yetishishiga xizmat qiladigan muhim hujjatlardan biridir.

Uchrashuv davomida yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganish madaniyatini yanada qam yoyish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va global miqyosdagi mulqotlarda faol ishtirok etishlariga zamin yaratish masalalari muhokama qilindi.

Bu yangi bosqichdagi hamkorlik yoshlar ta’limi va rivojida muhim bu-rilish nuqtasi bo‘lishi kutilmoqda.

hishga qarab xayriya mablag‘lari ajratadi. Bu blogerlik rivojlangani sari bizing mamlakatga ham kirib kelmoqda. Javohir ham o‘z blogida kuzatuvchilar uchun “donat” imkonini yaratgan.

– Ha, Yevropada blogerlar rivojlanish uchun yoki blogi orqali pul topish uchun reklama olishga yoki kattaroq kompaniya bilan hamkorlik qilishga ehtiyoj sezmaydi. Shunchaki auditoriya ularning mehnatini rag‘batlantirish kerakligini biladi. Bizda esa bu hali yaxshi rivojlanmagan. Xayriya masalasiga ijobiy qaralmaydi. Men buni faoliyatimning ikkinchi yoki uchinchi oyida obunachilarning talabi bilan ochganman. Shu kungacha tirikchilik.uz saytidan blogim uchun 3 mln so‘mga yaqin xayriya qilingan. Bu pulni hashar tashkillashtirish uchun, chiqindilarni olib ketadigan idish va qo‘lqoplar, yo‘lkira uchun ishlataman. Qahramonimiz endi bu faoliyati orqali dunyo kezmoqda. Chunki yaqindagina AQShga bo‘lgan ilk sayohati aynan ekofaolli-gi va bir qancha yutuqlari samarasi edi.

– “Open world program” dasturi bo‘yicha Amerika elchixonasi menga taklif bilan murojaat qildi. AQSh-da bo‘lib o‘tadigan 2 haftalik “Havo sifati boyicha tajriba almashish” o‘quv seminariga taklif qilindim. O‘zbekistondan 5 kishining nomzodi qo‘yilgan ekan va men barcha talablariga mos kelganim uchun hamyurtlarimiz bilan fevral oyida Amerikaga sayohat qildim. Vashingtonning Spokane shahrida bo‘ldik. Havo sifati e’tirof etarli darajada toza edi. Men buni har kuni tekshirib turdim: doimiy yashil ko‘rsatkich. Aholida ekologik madaniyat yaxshi shakllangan.

Javohirning aytishicha, sayohat xarajatlari elchixonaga tomonidan to‘liq qoplangan. Ulardan esa tajriba almashish va faoliyat davomida shu usullardan foydalanish talab etilgan. AQShdagi e’tiborga loyiq jihatlardan biri – bir martalik plastik idishlardan voz kechilgani va ovqat qoldiqlari uchun alohida, boshqa chiqindilar uchun alohida saralash joriy qilangani hamda bunga odamlar rioya qilishi haqida ham gapirdi qahramonimiz.

Sarvinov KOMILOVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri



YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Mas’ul muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Navbatchi muharrir:
Shahobiddin LUQMON

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatida chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-408, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

